

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI VA SUN'YI INTELLEKTNI  
RIVOJLANTIRISH ILMYIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13.30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI VA SUN'YI INTELLEKTNI  
RIVOJLANTIRISH ILMYIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**MURODULLAYEV BAXTIYOR TO'LG'IN O'G'LI**

**TAKRORIY EKIN EKILADIGAN HUDUDLARDA GEOFILTRATSIYA  
JARAYONLARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Murodullayev Baxtiyor To'liqin o'g'li**

Takroriy ekin ekiladigan hududlarda geofiltrtsiya jarayonlarini matematik modellashtirish.....5

**Муродуллаев Бахтиёр Тўлқин ўғли**

Математическое моделирование процессов геофильтрации на территориях с повторным посевом.....21

**Murodullaev Bakhtiyor Tulkin ugli**

Mathematical modeling of geofiltration processes in areas with repeated cropping..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI VA SUN'YI INTELLEKTNI  
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13.30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI VA SUN'YI INTELLEKTNI  
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**MURODULLAYEV BAXTIYOR TO'LG'IN O'G'LI**

**TAKRORIY EKIN EKILADIGAN HUDUDLARDA GEOFILTRATSIYA  
JARAYONLARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4421 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.airi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xabibullayev Ibroxim**

texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Raxmonov Zafar Ravshanovich**

fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

**Daliyev Sherzod Karshiyevich**

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.13.30.12.2021.T.142.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "31" yanvar soat 15<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent shahri, M. Ulug'bek tuman, Bo'z-2 mavzesi, 17A uy. Tel.: (+99871) 263-41-98; e-mail: info@airi.uz).

Dissertatsiya bilan Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (52 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent shahri, M. Ulug'bek tuman, Bo'z-2 mavzesi, 17A uy. Tel.: (+99871) 263-41-98; e-mail: info@airi.uz).

Dissertatsiya avtoreferati, 2025-yil "19" yanvar kunida tarqatildi.  
(2024-yil "16" dekabr dagi 20 raqamli reestr bayonnomasi.)



*[Handwritten signature]*

**N.Ravshanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

*[Handwritten signature]*

**F.M.Nuraliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari doktori, professor

*[Handwritten signature]*

**E.Sh.Nazirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanishida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, xalq xo‘jaligining turli amaliy masalalari matematik modellashtirish, sonli usullar va dasturlar majmui hamda hisoblash eksperimentlari asosida to‘g‘ri aniqlash zarurligini ko‘rsatmoqda. O‘sib borayotgan aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash masalasi yechimlari takroriy ekinlar yetishtirish bo‘lsa, bunda maydonlarni sug‘orish, melioratsiya va atrof-muhitga salbiy ta‘sirini minimallashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababli, gidrogeologiya va irrigatsiya sohasida dinamik o‘zgaruvchan tizimlarning geofiltratsiya modelini yaratish, axborot ta‘minoti va murakkab jarayonlarni samarali tadqiq qilish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt usullariga ehtiyoj ortib bormoqda. Dunyoning aksariyat mintiqalarida, jumladan AQSh, Germaniya, Daniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi va ko‘plab boshqa davlatlarda murakkab geofiltratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish, sonli yechimlar va dasturlar majmuini yaratish usullaridan keng qo‘llanilmoqda.

Jahonda gidrogeologik tadqiqotlar rivojlanishi geofiltratsiya va geomigratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish hamda sonli usullar rolining ortishi bilan tavsiflanadi. Oldindan belgilab qo‘yilgan hisob-kitoblarning ishonchliligi va aniqligiga tobora ortib borayotgan talablarni bajarish amaliy matematika va modellashtirishning ahamiyatini, shuningdek, yer osti suvlari konlari resurslaridan oqilona foydalanish, takroriy ekin ekiladigan hududlarda geofiltratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish va yuqori texnologiyali dasturiy vositalarni qo‘llash, ilmiy hamda amaliy usullarni takomillashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda geologiya, suv va qishloq xo‘jaligi faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yer osti suv resurslari holatini baholash, monitoring va bashorat qilish bilan bog‘liq murakkab gidrodinamik jarayonlarning matematik modellarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor berilmoqda. Jumaladan, O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasida, “... xalq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan vazifalarni amalga oshirishda, mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali boshqali don ekinlaridan bo‘shaydigan maydonlarga ekinlarning tezlashar navlarini takroriy ekin sifatida qisqa muddatlarda ekish, sug‘orish, parvarishlash va agrotexnika tadbirlarini o‘tkazilishini doimiy ravishda nazorat qilish, monitoringini yuritish tizimini yo‘lga qo‘yish hamda ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish”<sup>1</sup> vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi murakkab gidrogeologik tizimlarni holatini kuzatish, tahlil qilish va samarali foydalanish, turg‘unmas geofiltratsiya jarayonini matematik modeli, algoritmi hamda dasturiy vositalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlarida ham ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, 2018-yil 19-fevral “Axborot texnologiyalari va

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni

kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi PF-5349-sonli Farmoni, 2023-yil 11-sentabrda “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida’gi PF-158-son farmoni va Qashqadaryo viloyat hokimining 2019-yil 1-apreldagi tegishli qarori bilan viloyatda g‘alladan bo‘shagan maydonlarga takroriy ekin ekishning prognoz ko‘rsatkichlari belgilab berilgan hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Geofiltratsiya va geomigratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish va sonli usullar asosida takroriy ekin ekiladigan hududlarda yer osti suvlari harakatlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu yo‘nalishda bir qator ahamiyatli nazariy va amaliy natijalar olinganligini ko‘rsatdi. A.Darsi, F.Forxgeymer, J.Dyupyui, J.Bussinesk, N.Y.Jukovskiy va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy ishlari yer osti gidrodinamikasi jarayonlarini matematik modellashtirishning fundamental aspektlariga bag‘ishlangan. P.Y.Polubarinova-Kochina, V.I.Aravina, S.N.Numerov, G.N.Kamensk, A.I.Silina-Bekchurin, P.P.Klimentov, G.B.Pixachev, V.A.Mironenko, I.K.Gavich, V.N.Shelkachev, M.A.Guseyn-zade, V.M.Shestakov, N.N.Verigin, I.A.Charniy, F.M.Bochever, M.S.Xantush, S.Ye.Jakob, K.E.Lembke, M.Lyuis, P.J.Monteiro, Ch.H.Rycroft, G.I.Barenblatt, T.W.Patzek, D.B.Silin, M.Chraibi, S.Zaleski, F.Franco, C.Atkinson, R.A.Isangulov, M.H.Hamdan, J.Bear, A.Verruijt, T.P.Clement, G.F.Pinder, W.G.Gray, T.E.Reilly, A.W.Harbaugh, R.J.Hunt, C.Zheng, W.Kinzel, G.D.Bennett, D.A.Benson, R.F.Carsel, R.S.Parrish, M.M.Meyerschayert va boshqa tadqiqotchilar yer osti suvlari sathining o‘zgarishi va minerallashuvi jarayonlarining matematik modellarini yaratishda katta hissa qo‘shdilar.

O‘zbekistonda gidrodinamika, geofiltratsiya jarayonlarining matematik modellari va samarali sonli usullarini ishlab chiqishda F.B.Abotaliyev, R.Sadullayev, J.F.Fayzullayev, N.Muxidinov, M.M.Oripov, R.N.Usmonov, N.Ravshanov, I.Habibullayev, J.X.Djumanov, E.Sh.Nazirova, A.Ne‘matov, Sh.Daliyev, X.Egamberdiyev va boshqa olimlar salmoqli ilmiy natijalarga erishishgan. Bugungi kunda gidrogeologik jarayonlarni hududlar bo‘yicha taqsimlanganlik xususiyatlarini va yer osti suvlari holatini monitoringi, tartib elementlarini hisobga olinishi bilan filtratsiya jarayonlarni matematik modellashtirish hamda hisoblash tajribalari asosida har tomonlama tahlil qilish usullarini integratsiyasi muammolari namoyon bo‘lmoqda.

Takroriy ekin ekiladigan hududlarda sug‘oriladigan uchastkalar uchun axborot tizimini ishlab chiqish va bu axborot tizimdan har bir uchastkaning xususiy parametrlarini qabul qilib, fazo va vaqtga nisbatan jarayon uchun adekvat fizik xususiyatlarni hisoblash, hamda taklif qilinayotgan matematik model orqali yer osti

suvlarining harakati va sathini aniqligi yuqori bo'lgan ma'lumot sifatida taqdim etuvchi algoritmi yetarli darajada o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Muxammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida U-AT-2021-493 "Yer osti suvlarining sathini, haroratini va elektr o'tkazuvchanligini masofadan aniqlovchi innovatsion uskuna yaratish" (2021-2023) mavzulardagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** takroriy ekin ekiladigan maydonlarda sug'orish rejimlarni hisobga olgan holda yer osti suvlari sathi o'zgarishini bashorat qilish uchun matematik modellar, sonli algoritmlar va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish hamda uni takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sug'orish suvlarining yer osti suvlariga ta'siri jarayonlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarini tahlilini amalga oshirish;

o'rganilayotgan geofiltratsiya jarayonining axborot modelini ishlab chiqish;

sug'orish natijasida yer osti suvlari sathining o'zgarishini hamda yer osti suv qatlamida balans elementlarining ta'sir jarayonlarini tavsiflovchi matematik modelini takomillashtirish va masalani yechish uchun sonli algoritmini ishlab chiqish;

sug'orish rejimining o'zgarishi natijasida aeratsiya zonasini to'yinishi va uning tarqalishi hamda sug'orish suvlarini yer osti suvlari sathiga tutashish hamda qatlamining to'yinib borish jarayonining matematik modelini va uni yechishni samarali sonli algoritmini ishlab chiqish;

takroriy ekin ekiladigan maydonlarda sug'orish rejimlarni hisobga olgan holda yer osti suvlari sathi o'zgarishini bashoratlash uchun dasturiy vositani ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida yer osti suvlari fizik xususiyatlarining o'zaro bog'liqlikdagi geofiltratsiya va geomigratsiya jarayonlari qaralgan.

**Tadqiqotning predmetini** takroriy ekin ekiladigan hududlarda yer osti suvi shakllanishi sharoitlarining matematik modeli, hisoblash algoritmlari va EHMda hisoblash ishlarini olib borish uchun dasturiy majmua tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarish jarayonida hisoblash matematikasi, matematik modellashtirish va hisoblash tajribasi usullari, sonli usullar, tizimli tahlil hamda dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish uchun ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash texnologiyalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sug'orish natijasida yer osti suvlari sathining o'zgarishini va suvli qatlam balans elementlarining ta'sir omillarini tavsiflovchi geofiltratsiya jarayonlarining matematik modeli takomillashtirilgan;

aeratsiya hududini to'yinishi va takroriy ekinlarni sug'orish rejimining o'zgarishi natijasida suvlarini tarqalishi, yer osti suvlari sathiga tutashishi hamda qatlamining to'yinib borish jarayonining matematik modeli ishlab chiqilgan;

gidrogeologik bog‘langan suvli qatlamlarning geofiltratsiya va geomigratsiya jarayonlarining matematik modeli va sonli yechimlari hamda samarali algoritmlari ishlab chiqilgan;

takroriy ekin ekiladigan maydonlarning fizik xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan modelning koeffitsientlarini umumiy vaqt integratsiyasida har qadamda yangilab boruvchi hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

takroriy ekin ekiladigan yerlarda yer osti suvlarining harakati va sathini bashoratlash imkonini beruvchi matematik modelning sonli yechimlari va samarali algoritmlari ishlab chiqildi;

aeratsiya hududini to‘yinishi va takroriy ekin ekiladigan maydonlarning fizik xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan modelning koeffitsientlarini umumiy vaqt integratsiyasida har qadamda hisoblash imkonini beruvchi algoritmi va dasturiy majmui yaratildi;

modellash asosida suvning konveksiya va diffuziya jarayonlarini hisobga olib, yer osti suvlarining harakat tezliklari va konsentratsiyasini aniqlash, harorati va tuproqning to‘yinish darajasini, o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini hisoblash hamda melioratsiya tadbirlarini o‘tkazishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi batafsil matematik ifodalar, massa saqlanishi va A.Darsi qonuniga qat’iy mosligi bilan tasdiqlangan. Modelning adekvatlik masalasi ob’ekt elementlari farqini minimallashtirish bilan amalga oshirilgan, sonli tajriba-hisoblash natijalari o‘lchov-kuzatuv monitoringi ma’lumotlari bilan taqqoslanganligi, hisoblash jarayonining turg‘unligi va yaqinlashuvchanligi, hisob natijalari o‘rganilayotgan jarayonlarning tabiatiga zid emasligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gidrogeologik tizimlarda matematik modellashni ilmiy umumlash, yer osti suvlari geofiltratsiya jarayonlarini tabiiy va antropogen omillar ta’sirida o‘zgarishini baholash hamda yer osti suvlari sızilish ko‘rsatkichlarini axborot ta’minoti va hisoblash eksperiment usullarini rivojlantirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati yer osti gidrosferasida geofiltratsiya jarayonlari bilan birgalikdagi, takroriy ekin ekiladigan hududlarda bir qatlamli g‘ovak muhitlarda turli boshlang‘ich va chegaraviy shartlar asosida yer osti suvi sathi holatini baholashda samarali algoritmlar va dasturiy vositalar ishlab chiqilganligi, bu esa hisoblash vaqtini kamaytirdi va yer osti suvlari sathini aniqlash uchun muhandislik hisob-kitoblarining aniqligini oshirish bilan tavsiflanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Takroriy ekin ekiladigan hududlarda yer osti va yer usti suvlarini birgalikda hamda o‘zaro bog‘liqliqdagi geofiltratsiyasi jarayonlarining matematik modellari, shuningdek samarali sonli hisoblash algoritmlari asosida:

sug‘orish natijasida yer osti suvlari sathining o‘zgarishini va suvli qatlam balans elementlarining ta’sir omillarini tavsiflovchi geofiltratsiya jarayonlarining takomillashtirilgan matematik modeli hamda aeratsiya hududini to‘yinib borish jarayonining matematik modeli “Amu-Qashqadaryo ITHB huzuridagi nasos



stansiyalari va energetik boshqarmasi” da joriy qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 30-oktyabrdagi 05/13-4053-son ma’lumotnomasi). Natijada murakkab gidrogeologik va suv tanqisligi sharoitida yer osti gidrosferasi monitoringini yuritish, suv ta’minotida meliorativ samaradorlikni 4-7% ko‘targan; yer osti suvi sathini me’yorda saqlash chora-tadbirlari asosida qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligining 2-5% o‘shiga imkon yaratgan;

gidrogeologik bog‘langan suvli qatlamlarning geofiltratsiya va geomigratsiya jarayonlari matematik modelini amalga oshirish sonli yechimlari va samarali algoritmlari hamda ishlab chiqilgan modelning koeffisientlarini umumiy vaqt integratsiyasida har qadamda hisoblash algoritmi va dasturiy majmiyi asosida “Kasbi irrigatsiya bo‘limi” da joriy qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 30-oktyabrdagi 05/13-4053-son ma’lumotnomasi). Natijada qo‘llanilishi yer osti gidrosferasida suv xo‘jalik sharoitlarining o‘zgarish holati, monitoring va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini shakllantirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqotining natijalari 5 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 34 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 1 ta xorijiy va 18 ta respublika jurnallarida chop etilgan hamda 4 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan bo‘lib, kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining O‘zbekiston Respublikasi fani va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos ravishda dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqotning obykti va predmeti ko‘rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyatlari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish holatlari, shuningdek, tadqiqot natijalarining chop etilganligi hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “**Takroriy ekin ekiladigan hududlarda geofiltratsiya jarayonlarini matematik modellashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida takroriy ekin ekiladigan hududlarda geofiltratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish bo‘yicha xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Sug‘oriladigan hududlarda yer osti suvlari sathini bashorat qilish uchun ishlab chiqilgan matematik modellar asosida misollar keltirilgan.

1.1-paragrafda, takroriy ekin ekishning meliorativ holatlarini tahlil qilish va boshqarish uchun tizimli yondashuv va matematik modellashtirish usullarining ahamiyati ta'kidlangan.

1.2-paragrafda, xorijiy va mahalliy tajribalar o'rganilib, Web of Science platformasidagi ilmiy maqolalar tahlil qilingan. 1.3-paragrafda, yer osti suvlarini modellashtirishda yer osti suv gorizontining tuzilishi, suv o'tkazuvchanligi, bug'lanish va sug'orish natijasidagi o'zgarishlar hisobga olingan. Hidrografik tarmoq va yer osti suvlarining o'zaro ta'siri ham ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiya ishining **“Takroriy ekin ekiladigan hududlarida yer osti suvlarini harakatini matematik va sonli modelini takomillashtirish”** deb nomlagan ikkinchi bobida takroriy ekin ekiladigan hududlardagi yer osti grunt suvlarini matematik va sonli modellarini takomillashtirish masalasi ko'rib chiqilgan. Yer osti suvlarining asosiy ko'rsatkichlari, sug'orish suvi, sizilish omillari va suv resurslari haqida batafsil axborot modeli tuzilgan. Kasbi tumanidagi yer osti suvlarining ekspluatatsion jarayonlari, rejim kuzatuvlari natijalari tahlil qilinib, suv sathini o'zgarishini bashorat qilish, sizilish joylari va ularning miqdorini aniqlash masalalari o'rganilgan. Shuningdek, takroriy ekin ekiladigan hududlarda grunt suvlar geofiltratsiya jarayonlarining matematik modeli takomillashtirilgan.

2.1-paragrafda, takroriy ekin ekiladigan hududlarda yer osti suv sathini bashoratlash uchun sug'oriladigan maydonlarning fizik xususiyatlari va ta'sir etuvchi omillarni hisobga olib, axborot ta'minoti shakllantirilgani va bu asosda matematik modellashtirish hamda sonli usullar yordamida vaqt va fazoga nisbatan yechimlar olish masalalari ko'rib chiqilgan. Meliorativ ishlar orqali tuproq unumdorligini oshirish va yaroqsiz yerlardan foydalanish tadqiq qilingan. Kasbi tumani misolida yer osti suvlarining harakatini geofiltratsion model orqali bashorat qilish, hududning fizik va meliorativ xususiyatlari tahlili hamda suv balansi va boshqa omillar asosida axborot ta'minoti yaratilgan.

2.2-paragrafda, takroriy ekin ekiladigan hududlardagi yer osti suvlarining harakatini tavsiflovchi matematik model takomillashtirilgan. Suvli qatlamdagi yer osti suv sathi pastki gorizont suv o'tkazmaydigan qatlamga nisbatan olinib, bu harakat parabolik turdagi xususiy hosilali chiziqli bo'lmagan differensial tenglama bilan ifodalanadi va u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\mu \frac{\partial h}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left( kh \frac{\partial h}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left( kh \frac{\partial h}{\partial y} \right) + W \quad (1)$$

va uning boshlang'ich hamda chegaraviy shartlari quyidagicha bo'ladi:

$$h(x, y, 0) = h_0(x, y), \quad (2)$$

$$kh \frac{\partial h}{\partial x} \Big|_{x=0} = -\lambda(h-h_0), \quad kh \frac{\partial h}{\partial x} \Big|_{x=L} = \lambda(h-h_0), \quad (3)$$

$$kh \frac{\partial h}{\partial y} \Big|_{y=0} = -\lambda(h-h_0), \quad kh \frac{\partial h}{\partial y} \Big|_{y=L} = \lambda(h-h_0), \quad (4)$$

bu yerda:  $h_0$  -sizot suv sathining boshlang'ich qiymati;  $\lambda$  -hisob chegarasi orqali massa almashinuv koeffitsiyenti;  $t_0$  -boshlang'ich vaqt;  $\mu$  - suvli qatlamning suv berish qobiliyati (o'lchovsiz qiymat);  $h = h(x, y, t)$  - yer osti suvlarining suv

o'kazmaydigan qatlamdan yer sirtigacha bo'lgan darajasi qiymati;  $x, y$ - tekislik koordinatalari;  $t$  - vaqt, sutka;  $k = k(x, y, t)$  - filtratsiya koeffitsienti va u quyidagicha ifodalangan:

$$k(x, y, t) = k_0(x, y) \frac{h(x, y, t) + h_0(x, y)}{2h(x, y)};$$

bu yerda  $k_0$  - filtratsiya koeffitsientining dastlabki qiymati;  $h_0$  - dastlabki yer osti suvlari sathi.  $W$  - ozod hadlarning algebraik yig'indisi va uning ifodalanishi:

$$W = \delta_k \eta_k Q_k - \delta_b \eta_b Q_b - \delta_d \eta_d Q_d - \delta_z \eta_z Q_z + \delta_{in} \eta_{in} Q_{in} + \delta_s \eta_s Q_s;$$

bu yerda  $\delta$  - derakt delta funksiyasi;  $\delta_m = \begin{cases} x = x_m, y = y_m, & 1 \\ x \neq x_m, y \neq y_m, & 0 \end{cases}; m \in [k, b, d, z, in, s];$

$\eta$  - modelni o'lchovli ko'rinishga o'tkazish koeffitsiyenti (tengliklarning massa almashinuvi koeffitsiyenti),  $Q_d$  - yer ostidan olinadigan suv miqdori;  $Q_b$  - sathdan bug'lanish;  $Q_{in}$  - yer osti suvlarining atmosfera yog'inlari bilan infiltratsion to'yinishi;  $Q_k$  - kanallardan yer ostiga suv shimilishi;  $Q_z$  - yer ostidan suv chiqishi (zavurlarga);  $Q_s$  - sug'oriladigan davrda beriladigan suv miqdori.

Qo'yilgan masalani yechish uchun ushbu:

$$h^* = \frac{h}{h_0}, k^* = \frac{k}{k_0}, x^* = \frac{x}{L}, y^* = \frac{y}{L}, \tau = \frac{k_0 h_0}{\mu L^2} t,$$

$$\eta_{in} = \frac{2L^2}{k_0 h_0^2}, \eta_b = \frac{2L^2}{k_0 h_0^2}, \eta_d = \frac{2L}{k_0 h_0^2}, \eta_r = \frac{2L}{k_0 h_0^2}, \eta_z = \frac{2L}{k_0 h_0^2}, \eta_s = \frac{L^2}{k_0 h_0^2}.$$

o'lchovsiz kattaliklarni kiritamiz. U holda (1) – (4) yer osti sizot suv sathi o'zgarish jarayoni matematik modeli va mos chegaraviy shartlari quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{1}{\tilde{h}} \frac{\partial h^*}{\partial \tau} = \frac{\partial}{\partial x} \left( k^* \frac{\partial h^*}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left( k^* \frac{\partial h^*}{\partial y} \right) + 2W^*, \quad (5)$$

$$\frac{k_0 h_0^2}{L} k^* h^* \frac{\partial h^*}{\partial x} \Big|_{x^*=0} = -\lambda(h_0 h^* - h_0), \quad \frac{k_0 h_0^2}{L} k^* h^* \frac{\partial h^*}{\partial x} \Big|_{x^*=1} = \lambda(h_0 h^* - h_0), \quad (6)$$

$$\frac{k_0 h_0^2}{L} k^* h^* \frac{\partial h^*}{\partial y} \Big|_{y^*=0} = -\lambda(h_0 h^* - h_0), \quad \frac{k_0 h_0^2}{L} k^* h^* \frac{\partial h^*}{\partial y} \Big|_{y^*=1} = \lambda(h_0 h^* - h_0), \quad (7)$$

Soddalashtirish maqsadida (5) tenglamani va (6) - (7) chegaraviy shartlardagi «\*» belgisini tushirib, tenglamani quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\frac{1}{\tilde{h}} \frac{\partial h^2}{\partial \tau} = \frac{\partial}{\partial x} \left( k \frac{\partial h^2}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left( k \frac{\partial h^2}{\partial y} \right) + 2W, \quad (8)$$

boshlang'ich vaqt  $\tau = \tau_0$  bo'lsin. U holda boshlang'ich shart va chegaraviy shartlar:

$$h \Big|_{\tau=\tau_0} = h_0,$$

$$\frac{k_0 h_0^2}{L} k h \frac{\partial h}{\partial x} \Big|_{x=0} = -\lambda(h_0 h - h_0), \quad \frac{k_0 h_0^2}{L} k h \frac{\partial h}{\partial x} \Big|_{x=1} = \lambda(h_0 h - h_0), \quad (9)$$

$$\frac{k_0 h_0^2}{L} k h \frac{\partial h}{\partial y} \Big|_{y=0} = -\lambda(h_0 h - h_0), \quad \frac{k_0 h_0^2}{L} k h \frac{\partial h}{\partial y} \Big|_{y=1} = \lambda(h_0 h - h_0). \quad (10)$$

2.3.-paragrafida, takroriy ekin ekiladigan hududlarning yer osti suvlarining harakatini matematik modelini takomillashtirish va uning sonli yechimi keltirilgan.

(1) va (8) masalalar chiziqli bo‘lmagan differensial tenglamalar sistemalari bilan ifodalanganligi sababli ularni analitik usulda yechish murakkab bo‘ladi. Shu bois ko‘rilayotgan masalalarning yechimlarini topish uchun sonli usullardan foydalanamiz. (1)-(4) masalalarni sonli yechish uchun chekli ayirmalar usulini qo‘llaymiz. Buning uchun  $D = \{0 \leq x \leq 1, 0 \leq y \leq 1, 0 \leq t \leq N\}$  sohaga to‘r kiratamiz, bu yerda izlanayotgan jarayon oralig‘idagi  $N$  maksimal vaqt,  $D$  sohaning  $[0,1]$  va  $[0,1]$  intervali,  $\Delta x, \Delta y$  qadamlar,  $[0, N]$  ni  $\Delta \tau$  qadam bilan bo‘lib chiqamiz va quyidagi to‘rga ega bo‘lamiz:

$$\omega_{\Delta x, \Delta y, \Delta \tau} = \{x = i\Delta x; i = 0, 1, 2, \dots, I; \quad y = j\Delta y; j = 0, 1, 2, \dots, J; \quad t_n = n\Delta \tau; n = 0, 1, 2, \dots, N\},$$

$n + \frac{1}{2}$  qatlamda (8) tenglama hamda (9) – (10) chegaraviy shartlarni  $\omega_{\Delta x, \Delta y, \Delta \tau}$

to‘rda oshkormas sxemani qo‘llab approksimatsiya qilib quyidagi chekli ayirmali tenglamalarga ega bo‘lamiz:

$$\frac{1}{\tilde{h}_{i,j}} \frac{(h^2)_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} - (h^2)_{i,j}^n}{0.5\Delta \tau} = \frac{k_{i-0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} (h^2)_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}}}{\Delta x^2} - \frac{(k_{i-0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} + k_{i+0.5,j}^{n+\frac{1}{2}}) (h^2)_{i,j}^{n+\frac{1}{2}}}{\Delta x^2} + \frac{k_{i+0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} (h^2)_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}}}{\Delta x^2} +$$

$$+ \frac{k_{i,j-0.5}^n (h^2)_{i,j-1}^n}{\Delta y^2} - \frac{(k_{i,j-0.5}^n + k_{i,j+0.5}^n) (h^2)_{i,j}^n}{\Delta y^2} + \frac{k_{i,j+0.5}^n (h^2)_{i,j+1}^n}{\Delta y^2} + 2W_{i,j}^n. \quad (11)$$

(11) tenglamani sath funksiyasining kvadratiga nisbatan  $h^2 \approx 2\tilde{h}h - \tilde{h}^2$  kabi yozamiz. O‘xshash hadlarni ixchamlaganimizdan keyin algebraik tenglamalar sistemasi ko‘rinishida ifodalaymiz:

$$Ox \text{ yo‘nalishida:} \quad a_{i,j} h_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} - b_{i,j} h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} + c_{i,j} h_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} = -d_{i,j}, \quad (12)$$

$$\text{bu yerda: } a_{i,j} = \frac{2k_{i-0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} \tilde{h}_{i-1,j}}{\Delta x^2}, \quad b_{i,j} = \frac{2 \left( k_{i-0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} + k_{i+0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} \right) \tilde{h}_{i,j}}{\Delta x^2} - \frac{4}{\Delta \tau}, \quad c_{i,j} = \frac{2k_{i+0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} \tilde{h}_{i+1,j}}{\Delta x^2},$$

$$d_{i,j} = \left( \frac{4}{\Delta \tau} - \frac{2(k_{i,j-0.5}^n + k_{i,j+0.5}^n) \tilde{h}_{i,j}}{\Delta y^2} \right) h_{i,j}^n + \frac{2k_{i,j-0.5}^n \tilde{h}_{i,j-1}}{\Delta y^2} h_{i,j-1}^n +$$

$$+ \frac{2k_{i,j+0.5}^n \tilde{h}_{i,j+1}}{\Delta y^2} h_{i,j+1}^n - \frac{k_{i-0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} \tilde{h}_{i-1,j}^2}{\Delta x^2} + \frac{\left( k_{i-0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} + k_{i+0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} \right) \tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta x^2} - \frac{k_{i+0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} \tilde{h}_{i+1,j}^2}{\Delta x^2} -$$

$$- \frac{k_{i,j-0.5}^n \tilde{h}_{i,j-1}^2}{\Delta y^2} + \frac{(k_{i,j-0.5}^n + k_{i,j+0.5}^n) \tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta y^2} - \frac{k_{i,j+0.5}^n \tilde{h}_{i,j+1}^2}{\Delta y^2} + 2W_{i,j}^n.$$

$$Oy \text{ yo‘nalishida:} \quad \bar{a}_{i,j} h_{i,j-1}^{n+1} - \bar{b}_{i,j} h_{i,j}^{n+1} + \bar{c}_{i,j} h_{i,j+1}^{n+1} = -\bar{d}_{i,j}, \quad (13)$$

$$\text{bu yerda: } \bar{a}_{i,j} = \frac{2k_{i,j-0.5}^{n+1} \tilde{h}_{i,j-1}}{\Delta y^2}, \quad \bar{b}_{i,j} = \frac{2(k_{i,j-0.5}^{n+1} + k_{i,j+0.5}^{n+1}) \tilde{h}_{i,j}}{\Delta y^2} - \frac{4}{\Delta \tau}, \quad \bar{c}_{i,j} = \frac{2k_{i,j+0.5}^{n+1} \tilde{h}_{i,j+1}}{\Delta y^2},$$

$$\begin{aligned} \bar{d}_{i,j} = & \left( \frac{4}{\Delta\tau} - \frac{2 \left( k_{i-0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} + k_{i+0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} \right) \tilde{h}_{i,j}}{\Delta x^2} \right) h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} + \frac{2k_{i-0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} \tilde{h}_{i-1,j}}{\Delta x^2} h_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} + \\ & + \frac{2k_{i+0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} \tilde{h}_{i+1,j}}{\Delta x^2} h_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} - \frac{k_{i-0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} \tilde{h}_{i-1,j}^2}{\Delta x^2} + \frac{\left( k_{i-0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} + k_{i+0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} \right) \tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta x^2} - \frac{k_{i+0.5,j}^{n+\frac{1}{2}} \tilde{h}_{i+1,j}^2}{\Delta x^2} - \\ & - \frac{k_{i,j-0.5}^{n+1} \tilde{h}_{i,j-1}^2}{\Delta y^2} + \frac{\left( k_{i,j-0.5}^{n+1} + k_{i,j+0.5}^{n+1} \right) \tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta y^2} - \frac{k_{i,j+0.5}^{n+1} \tilde{h}_{i,j+1}^2}{\Delta y^2} + 2W_{i,j}^{n+\frac{1}{2}}, \end{aligned}$$

(12) va (13) tenglamalar progonka metodidan foydalanib hisoblaymiz:

$$Ox \text{ yo'nalishida: } h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} = \alpha_{i+1,j} h_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} + \beta_{i+1,j},$$

$$Oy \text{ yo'nalishida: } h_{i,j}^{n+1} = \bar{\alpha}_{i,j+1} h_{i,j+1}^{n+1} + \bar{\beta}_{i,j+1},$$

rekurrent formulalardan foydalanib (15) va (16) larda  $\alpha_{i,j}, \beta_{i,j}, \bar{\alpha}_{i,j}, \bar{\beta}_{i,j}$  larni topish uchun  $i$  ni  $i-1$  ga,  $j$  ni  $j-1$  ga almashtiramiz:

$$h_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} = \alpha_{i,j} h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} + \beta_{i,j}, \quad h_{i,j-1}^{n+1} = \bar{\alpha}_{i,j} h_{i,j}^{n+1} + \bar{\beta}_{i,j},$$

bu yerda:  $\alpha_{i,j}, \beta_{i,j}, \bar{\alpha}_{i,j}, \bar{\beta}_{i,j}$  lar progonka koeffitsiyentlari, hisob kitoblardan so'ng  $Ox, Oy$  yo'nalishlari uchun progonka koeffitsiyentlarini topish uchun quyidagi rekurentlardan foydalanamiz:

$$\begin{aligned} \alpha_i &= \frac{c_{i-1,j}}{b_{i-1,j} - a_{i-1,j} \alpha_{i-1,j}}, & \beta_i &= \frac{d_{i-1,j} + a_{i-1,j} \beta_{i-1,j}}{b_{i-1,j} - a_{i-1,j} \alpha_{i-1,j}}, \\ \bar{\alpha}_j &= \frac{\bar{c}_{i,j-1}}{\bar{b}_{i,j-1} - \bar{a}_{i,j-1} \bar{\alpha}_{i,j-1}}, & \bar{\beta}_j &= \frac{\bar{d}_{i,j-1} + \bar{a}_{i,j-1} \bar{\beta}_{i,j-1}}{\bar{b}_{i,j-1} - \bar{a}_{i,j-1} \bar{\alpha}_{i,j-1}}, \end{aligned}$$

chegaraviy shartlarni oshkormas sxemani qo'llab approksimatsiya qilamiz:

$$Ox \text{ yo'nalishi bo'ylab: } \frac{k_0 h_0^2}{2L} k_{1,j} \frac{2h_{1,j} h_{1,j}^{n+\frac{1}{2}} - h_{1,j}^2 - 2h_{0,j} h_{0,j}^{n+\frac{1}{2}} + h_{0,j}^2}{\Delta x} = -\lambda (h_0 h_{1,j}^{n+\frac{1}{2}} - h_0),$$

$$\frac{k_0 h_0^2}{2L} k_{l,j} \frac{2h_{l,j} h_{l,j}^{n+\frac{1}{2}} - h_{l,j}^2 - 2h_{l-1,j} h_{l-1,j}^{n+\frac{1}{2}} + h_{l-1,j}^2}{\Delta x} = \lambda (h_0 h_{l,j}^{n+\frac{1}{2}} - h_0),$$

$$Oy \text{ yo'nalishi bo'ylab: } \frac{k_0 h_0^2}{2L} k_{i,1} \frac{2h_{i,1} h_{i,1}^{n+1} - h_{i,1}^2 - 2h_{i,0} h_{i,0}^{n+1} + h_{i,0}^2}{\Delta y} = -\lambda (h_0 h_{i,1}^{n+1} - h_0),$$


$$\frac{k_0 h_0^2}{2L} k_{i,J} \frac{2h_{i,J} h_{i,J}^{n+1} - h_{i,J}^2 - 2h_{i,J-1} h_{i,J-1}^{n+1} + h_{i,J-1}^2}{\Delta y} = \lambda (h_0 h_{i,J}^{n+1} - h_0).$$

Dastlabki yaqinlashish sifatida biz qo'yilgan masalaning boshlang'ich shartini olamiz va quyidagicha (14) iteratsiyada tekshiramiz:


$$\left| (h_{i,j})^{(s+1)} - (h_{i,j})^{(s)} \right| \leq \varepsilon; \quad (14)$$

bu yerda:  $s$  – iteratsiyalar soni;  $\varepsilon$  – iteratsion jarayonning aniqligi (0.001).

2.3.-paragrafida, takroriy ekin ekiladigan hududlarning yer osti suvlarini harakatining takomillashtirilgan matematik modeli uchun sonli tajriba natijalari 1 va 2 – rasmlarda keltirilgan:



**1-rasm. Sug‘orilgan hududda quduq va zahkash qo‘llash holati hamda natijalari**



**2-rasm. Hududda kanal, quduq va zahkash qo‘llash holati hamda natijalari**

Dissertatsiya ishining “**Takroriy ekin ekiladigan hududlarda geofiltratsiya jarayonini aeratsiya zonasini fizik va meliorativ xususiyatlarini inobatga holda matematik va sonli modellashtirish**” deb nomlagan uchinchi bobida takroriy ekin ekiladigan hududlarda geofiltratsiya jarayonini aeratsiya zonasining fizik va meliorativ xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik va sonli modellashtirish ko‘rib chiqilgan. Matematik modelni qurishda yer usti va yer osti omillarini hisobga olib, mavjud axborot modellari va adabiyotlardan kelib chiqib, yangi model taklif qilingan. Jarayon asosan massa ko‘chishiga asoslangan bo‘lib, suyuqlik oqimining tezligi, sirt tarangligi va molekulyar diffuziya kabi omillar hisobga olingan matematik model taklif etilgan.

3.1.-paragrafida, sug‘oriladigan ekin maydonlarda geofiltratsiya jarayonining fizik xususiyatlarini inobatga olib matematik modellashtirish keltirilgan.

Sug‘oriladigan maydonlarda, geofiltratsiya jarayonining fizik xususiyatlarini inobatga olib sonli modellashtirish uchun quyidagi matematik modelni taklif etildi. Qatlamda sathni ifodalash uchun muhitdagi suv konsentratsiyasining taqsimlanishi va bosim o‘zgarishi tenglamasi:

$$\frac{\partial C}{\partial t} + (1-H) \left( u \frac{\partial C}{\partial x} + v \frac{\partial C}{\partial y} + w \frac{\partial C}{\partial z} \right) = (1-H) \left( D_x \frac{\partial^2 C}{\partial x^2} + D_y \frac{\partial^2 C}{\partial y^2} + D_z \frac{\partial^2 C}{\partial z^2} \right) + W_C, \quad (15)$$

$$S_{save} \frac{1}{\rho g} \frac{\partial P}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left( k \frac{\partial}{\partial x} \left( \frac{P}{\rho g} + z \right) \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left( k \frac{\partial}{\partial y} \left( \frac{P}{\rho g} + z \right) \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left( k \frac{\partial}{\partial z} \left( \frac{P}{\rho g} + z \right) \right) + W_c + W_{Lz}, \quad (16)$$

bu yerda:  $C(x, y, z, t)$ -muhitdagi suv konsentratsiyasi;  $S_{save}$  - muhitning suv saqlash koeffitsienti;  $u(x, y, z, t)$ ,  $v(x, y, z, t)$ ,  $w(x, y, z, t)$ - konveksya tezliklari;  $\rho g$  - suvning zichligi va yerning tortishish tezlanishi;  $D_x(x, y, z, t)$ ,  $D_y(x, y, z, t)$ ,  $D_z(x, y, z, t)$  -diffuziya koeffitsientlari;  $W_c + W_{Lz}$  - Sug‘orish yoki manba chizig‘i, ya’ni suv qatlamiga tashqi tomondan qo‘shilayotgan yoki undan chiqarilayotgan suv miqdorini ifodalaydi.

$\Omega = \{x_i = x_0 + i\Delta x, i = 0, 1, \dots, N_x; y_j = y_0 + j\Delta y, j = 0, 1, \dots, N_y; z_k = z_0 + k\Delta z, k = 0, 1, \dots, N_z, T_n\}$ ,

vaqtini hisoblashi uchun quyidagi tenglikdan foydalanamiz:  $T_n = \sum_{\tau=0}^n \Delta t_\tau$ .

Cekli-ayrimali sxemani turg'unligini saqlash uchun vaqt qadamini quyidagicha aniqlaymiz:

$$\Delta t^n = \min \left( \frac{\Delta x}{u_{max}^n}, \frac{\Delta y}{v_{max}^n}, \frac{\Delta z}{w_{max}^n}, \frac{\Delta x^2}{2D}, \frac{\Delta y^2}{2D}, \frac{\Delta z^2}{2D} \right).$$

Dastlabgi vaqt iteratsiyasi uchun (boshlang'ich shartlar).

$$C(x, y, z, t)|_{t=0} = C_0(x, y, z), \quad P(x, y, z, t)|_{t=0} = P_0(x, y, z),$$

Konsentratsiya va bosimning chegaraviy nuqtalardagi qiymatlarini quyidagi tengliklar orqali kiritildi. Konsentratsiyani ifodolovchi  $C$  funksiya uchun:

$$\begin{aligned} x=0, \quad C(0, y, z, t) &= C(x + \Delta x, y, z, t) + (C(x + \Delta x, y, z, t) - C(x + 2\Delta x, y, z, t)), \\ x=L_x, \quad C(x, y, z, t) &= C(x - \Delta x, y, z, t) + (C(x - \Delta x, y, z, t) - C(x - 2\Delta x, y, z, t)), \\ y=0, \quad C(x, 0, z, t) &= C(x, y + \Delta y, z, t) + (C(x, y + \Delta y, z, t) - C(x, y + 2\Delta y, z, t)), \\ y=L_y, \quad C(x, y, z, t) &= C(x, y - \Delta y, z, t) + (C(x, y - \Delta y, z, t) - C(x, y - 2\Delta y, z, t)), \\ z=0, \quad C(x, y, 0, t) &= C(x, y, z + \Delta z, t) + (C(x, y, z + \Delta z, t) - C(x, y, z + 2\Delta z, t)), \\ z=L_z, \quad C(x, y, z, t) &= W_{L_z}. \end{aligned}$$

Bosim funksiyasining chegaraviy nuqtalardagi qiymatlarini hisoblash uchun:

$$\begin{aligned} x=0, \quad P(x, y, z, t) &= P(x + \Delta x, y, z, t) + (P(x + \Delta x, y, z, t) - P(x + 2\Delta x, y, z, t)), \\ x=L_x, \quad P(x, y, z, t) &= P(x - \Delta x, y, z, t) + (P(x - \Delta x, y, z, t) - P(x - 2\Delta x, y, z, t)), \\ y=0, \quad P(x, y, z, t) &= P(x, y + \Delta y, z, t) + (P(x, y + \Delta y, z, t) - P(x, y + 2\Delta y, z, t)), \\ y=L_y, \quad P(x, y, z, t) &= P(x, y - \Delta y, z, t) + (P(x, y - \Delta y, z, t) - P(x, y - 2\Delta y, z, t)), \\ z=0, \quad P(x, y, z, t) &= P(x, y, z + \Delta z, t) + (P(x, y, z + \Delta z, t) - P(x, y, z + 2\Delta z, t)), \\ z=L_z, \quad P(x, y, z, t) &= P(x, y, z - \Delta z, t) + (P(x, y, z - \Delta z, t) - P(x, y, z - 2\Delta z, t)), \end{aligned}$$

Chegara va soha ichida ta'sir etuvchi balans elementlari:

$$W_C = \delta_d Q_d + \delta_k Q_k - \delta_z Q_z; \quad W_{L_z} = \delta_{in} Q_{in} - \delta_b Q_b + \delta_s Q_s.$$

$$\delta_m = \begin{cases} 1, & x = x_m, y = y_m, z = z_m, t = t_m; \\ 0, & x \neq x_m, y \neq y_m, z \neq z_m, t \neq t_m. \end{cases} \quad (m \in [d, k, z, in, b, s])$$

Sath funksiyasini aniqlash uchun quyidagi munosibatdan foydalanamiz:

$$H(x, y, z, t, C) = \begin{cases} 1, & \begin{cases} C_{max}(x, y, z', t) - C(x, y, z', t) \leq \varepsilon \quad \forall z' \leq z, \\ C_{max}(x, y - \Delta y, z - \Delta z, t) - C(x, y - \Delta y, z - \Delta z, t) \leq \varepsilon, \\ C_{max}(x, y + \Delta y, z - \Delta z, t) - C(x, y + \Delta y, z - \Delta z, t) \leq \varepsilon, \\ C_{max}(x - \Delta x, y, z - \Delta z, t) - C(x - \Delta x, y, z - \Delta z, t) \leq \varepsilon, \\ C_{max}(x + \Delta x, y, z - \Delta z, t) - C(x + \Delta x, y, z - \Delta z, t) \leq \varepsilon. \end{cases} \\ 0. \end{cases}$$

bu yerda:  $C_{max}(x, y, z, t)$  -muhitning maksimal suv qabul qilish konsentratsiyasi.

O'tkazuvchanlik koeffitsiyenti esa quyidagi ifoda bilan aniqlaniladi:

